

BUNI ZORBLAR KABI QILING




Muallif: Raniya Zagir
Rassomlar: Tatyana Antoun va
GARGAMEL studiyasi

Dimitriyga,

Kimning yordamisiz biz Yerga hech qachon kelmagan bo'lar edik

- Zorblar.








BUNI ZORBLAR KABI QILING

Muallif: Raniya Zagir
Rassomlar: Tatyana Antoun va
Studiyasi GARGAMEL

Salom! MEN BU YERDAMAN!




Volchok ustidan!

Meni ko'ryapsizmi?

**Meni ko'rganingizda ismimni
baland ovoz bilan CHAQIRING.**

INTELLAAAAA



Sizni do'stlarim bilan tanishtirishimga ijozat bersangiz:

Sentimo,
g'amxo'r.



**Muammolarni
hal qiluvchi,
Signal.**



Skuter,
jamoaviy
o'yinchi.






**Va men, Intella.
Men ijodiy fikrlayman.**

Barchamiz birgalikda esa - ZORBLARMIZ.





Zorblar bir-birlari va sayorramizni hurmat qilmay qo‘yganliklari uchun biz Yerga keldik. Biz insolarni ichidan his qila olganimiz sababli ular qachon o‘zlarini noto‘g‘ri tutishayotganligini bilamiz.




**Yer sayyorasiga
kelganimizda biz ko‘p
insonlar bilan uchrashdik.
Odatda ular xushmuomala,
g‘amxo‘r, bir-birlarini
hurmat qilishadi.**



**Lekin har doim ham emas. Ba'zida
ular o'zlarini noto'g'ri tutishadi...**

JUDANOTO'G'RI.





**Biz insonlar qaysi holatlarda
noto'g'ri xatti-harakat
qilishayotganliklarini bilamiz, chunki**

Zorblar insonlarni
his qilish qobiliyatiga egadirlar.



Yig'layotganda Karmenni ko'rganimizda biz Sentimo bilan maktab oshxonasida edik.

Karmen odatda maktabga o'zining ponchosida kelar edi.

Lilli esa uni hammaning oldida masxara qilar edi. Lilli bu ishini yana va yana takrorlar edi.

Karmen bundan juda xafa bo'lar edi, biz uchun ham bunday holat juda achinarli.

O'yin maydonchasida Sami Svenni uning tashqi ko'rinishi uchun masxara qilayotganini ko'rdik.

Sven bo'lib o'tgan holatni o'zining do'stlari va o'qituvchilariga aytib berishdan qo'rqar edi.

U do'stlari ham uni masxara qilishlari mumkin deb o'ylar edi.

Bizga ham bu vaziyat juda og'riqli bo'ldi.





Biz sinf xonasida Karlos bilan Kofi Mianing sumkasini olib, undagi hamma narsalarni yerga tashlaganlarini ko'rdik.

Mia uni masxara qilishyotganidan juda xafa edi,

biz ham buni his qildik.

Buvi va buvamiz kitoblarni javonga joylashtirmoqchi bo'lib oyoqlari toyib yiqilib tushganlarida biz maktab kutubxonasida edik.

Ularga yordam berishga shoshilishni o'rniga baland ovozda kulayotgan Izabellani ko'rdik.

Bu hurmatsizlik holati edi va biz buni his qildik.



Bularning barchasini ko'rganimizdan so'ng biz Sentimo bilan faqat to'g'ri ishlarni qilishga qaror qildik.

Bizga ko'proq yordam kerak bo'lar edi, shuning uchun biz bu haqida Signal va Skuterga aytdik.

Signalga ajoyib ZORBIK g'oya keldi.





Skuter qog'oz, ruchka, konvert va marka oldi. Birgalikda biz **zorbik xat yozib uni bolalarga yubordik.**



Kimdan: Intella
Kimga: Karmen

Kimdan: Intella
Kimga: Lili

Kimdan: Sentimo
Kimga: Sven

Kimdan: Sentimo
Kimga: Sami

Kimdan: Signal
Kimga: Mia

Kimdan: Signal
Kimga: Karlos

Kimdan: Skuter
Kimga: Kofi

Kimdan: Zorblar
Kimga: SIZ

Kimdan: _____
Kimga: _____

Kimdan: _____
Kimga: _____

Aziz bolalar,

Biz - ZORBLARMIZ.

Sizni katta **Zorbik** ziyofatga taklif qilamiz

Juda qiziqarli bo'ladi!

Sana: 18 sentyabr

Vaqt: 16:00

Manzil: Zorblar kosmik kemasi

Kelishingizdan oldin bizga quyidagi savollarga javob topishda yordam bering:

Hurmat qilishning mohiyati nimada?

Boshqa insonlarga nisbatan qanday hurmat ko'rsatamiz?

Qachon boshqalar bizga hurmat ko'rsatadilar?

Hurmat ko'rsatish uchun biz qanday so'z yoki imo-ishoralardan foydalanishimiz mumkin?

Qanday qilib boshqa insonlarning hurmatiga sazovor bo'lish mumkin?

Nima uchun hurmat qilish muhim?


18 sentabr – hurmat kuni ekanligini bilar edingizmi?

Bu bir-biriga hurmatda bo'lishga bag'ishlangan maxsus kun.

Uni taqvimingizda

belgilab qo'ying!

Zorblar Zorbik ziyofatni tayyorladilar.
Ular bolalar bir-birini hurmat qilish
qanchalik muhimligini tushunishlarini
xohlashdi.



Skuter Zorbik volchokni uni hamma o'ynay olishi uchun yerga qo'ydi.





Bugun 18 sentabr.
Ziyofatga xush kelibsiz!



Sentimo bolalarga javob yozishga yordam berdi:

**Keksa va alohida
e'tiborga muxtoj
bo'lgan insonlarga
sabrli bo'lish.**

**Maktab
qoidalariga
amal qilish.**

**Boshqalarning fikri,
e'tiqodi yoki yoshi
Siznikidan farq qilsa
ham ularga doim
yaxshi munosabatda
bo'lish.**

**So'zlayotgan
insonni diqqat
bilan eshitib o'z
navbatini kutish.**

**Insonlarga
g'amxo'r
bo'lish.**

**Boshqa
insonlarning
narsalariga hurmat
bilan qarash.**

Hurmat

Hurmatsizlik

The image features a dark blue background with several stylized hands in shades of brown and tan. These hands are holding white rectangular papers that list various acts of disrespect. A white curved line is visible on the left side of the image.

Keksa va alohida
e'tiborga muxtoj
bo'lgan insonlarni
masxara qilish.

Faqat o'zini
o'ylab
boshqalarga
ziyon yetkazish.

G'iybat va
masxara qilish.

Maktab
qoidalarini
buzish.

Boshqalarning
buyumlaridan
ruxsatsiz
foydalanish.

Boshqalar
gapirganda
ularni gapini
bo'lish.



Hurmat

Qo'shnilar

Sayyora


O'qituvchilar

Do'stral

Ota-ona


**“Volchokni aylantirish vaqti keldi!”,
dedi Skuter. Bolalar navbatma-
navbat **Hurmat** volchokini
aylantirishdi.**

Volchok to'xtaganda uni aylantirgan odam undagi yozuvni baland ovoz bilan aytishi kerak edi. Ular o'zlarining maktabdagi xatti-harakatlari yozilgan qoidalarga mos kelishi yoki kelmasligi haqida aytishlari kerak edi.



Shaklni to'ldiring.



 Lilli Karmenni o'zi istagan narsasini kiyishi

_____ga egaligiga hurmatsizlik bilan
qaraganini angladi.



Sami Svenning tashqi ko'inishiga nisbatan
bildirgan hurmatsizligi uchun _____.



Karlos va Kofi Mianing narsalariga
_____ qilmaganlari uchun o'zlarini
noqulay his qilishdi.



Izabella maktab kutubxonasida qilgan ishini
to'g'rilamoqchi bo'ldi. U buvi va buvaga
nisbatan o'z _____ni izxor etmoqchi edi.

Keling
hurmat
pitsasini
yeymiz.



Shirinlik uchun joy
qoldiring. Men siz
uchun **hurmat tortini**
tayyorladim!





Pitsa va tortni iste'mol qilib hamda turli o'yinlarni o'ynab bo'lgandan so'ng uyga qaytish vaqti ham keldi. Ular **Zorblarga** ajoyib ziyofat uchun minnatdorchilik bildirishdi va o'zlarini **sevilmi** va **yaxshi** his qilishdi.

Hurmat bilan,
ZORBLAR



GRACE initiative

 grace.unodc.org

 unodc-grace@un.org



© United Nations, 2020

This publication is available in Open Access under the Attribution-ShareAlike 3.0 IGO (CC-BY-SA 3.0 IGO) licence. The United Nations Office on Drugs and Crime would appreciate receiving a copy of any publication that uses this material as a source.

DISCLAIMER:

The content of this publication does not necessarily reflect the views or policies of UNODC, Member States or contributory organizations, and nor does it imply any endorsement.

The present knowledge tool was developed by the UNODC Corruption and Economic Crime Branch (CEB), as part of the Education for Justice initiative under the Global Programme for the Implementation of the Doha Declaration.

**Butun dunyo bolalariga
yordam berishda davom
etayotgan to'rtta do'st Zorblarning
boshqa sarguzashtlari
bilan tanishing.**



fun-corner.unodc.org



Global Resource for Anti-Corruption
Education and Youth Empowerment

BUNI ZORBLAR
KABI QILING



